

HUQUQIY TARBIYANING TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

Akramova Madina Bahromjon qizi

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 29 -umumta'lim maktabi

Tarbiya va huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy tarbiyaning ta'lim tizimidagi o'rni, uning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, fuqarolik faolligini oshirishga va turli ta'lim bosqichlarida o'quvchilar o'rtasida adolat va mas'uliyat hissini singdirish to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: huquqiy tarbiya, ta'lim tizimi, huquqiy tamoyillar, ommaviy axborot vositalari, huquqiy ta'lim.

Kirish: Huquqiy tarbiya ta'lim tizimida shaxslarning intellektual, axloqiy va kasbiy takomillanishini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Huquqiy ta'lim akademik muvaffaqiyat va umrbod ta'lim olish uchun asosiy bo'lgan tanqidiy fikrlash va tahliliy malakalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarni huquqiy tamoyillarni o'rganish, vaziyatni tahlil qilish va dalillarni o'rganishga jalb etish yordamida yuridik ta'lim shaxslarni dalillarni baholashga, bir nechta nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga va mantiq va dalillarga asoslangan asosli dalillarni yaratishga undaydi. Huquqiy tadqiqotlarning analitik qat'iyligi o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, murakkab masalalarni hal etish va turli xil kontekstlarda axloqiy boshqarish qobiliyati bilan ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar: Huquqiy bilim olgan shaxs o'z bilimini hayotda ishlata bilishi, tadbiiq qila olishi darkor. Inson va fuqarolarning huquq, erkinliklari, burchlari bo'yicha dars jarayonida o'rganganlarini hayotda foydalana olish, shaxsning qonun asosida o'zini himoya qilishi, o'z burchlarini bajarishi uning o'z xatti-harakatlaridan kelib chiqadi. Bunday xatti-harakatlarning faollashib yoki aksincha susayib borishiga bir qancha omillar o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Masalan ta'lim

muassasalaridan mas'ul shaxslar xatti-harakatlari yoki oiladagi shart-sharoitlar bunga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatib turishi mumkin. Bunday vaziyatlarda ta'lim muassasalaridagi mas'ullar o'z faoliyatlarining samaradorligini oshirishi kerak. Ta'lim tizimining uzluksizligi tamoyili asosida oliy ta'lim bosqichida ham, institut va universitetlarda yoshlarning huquqiy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Huquqiy fanlarning keng va chuqurlashtirilgan dastur asosida o'qitilishi bilan bir qatorda suhbat-muloqot, bahs – munozara, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda

Natijalar: Huquqiy tarbiyani qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumatga qarashli bo'lmagan jamg'armaning tashkil qilinishi jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirish ishiga katta hissa qo'shishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari huquqiy bilimlar va huquqiy madaniyatni ommaga izchil tarqatishlari lozim. Ommaviy axborot vositalari ijtimoiy fikr va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi demokratik institutlar bo'lgani uchun ham ularning bu boradagi faoliyatini kuchaytirish zaruriyati borgan sari ko'proq sezilmoqda.

Huquqiy ta'lim - tarbiya hamisha davlatning siyosat, iqtisodiyot va axloqqa nisbatan o'z nuqtai nazarini aholiga aniq yetkazib berish borasidagi eng ishonchli yo'l sanaladi. Huquqiy normalar yozma shaklda ifodalanadi va shu asosida insonlar u bilan davlat tomonidan ta'riflanganidek shaklda tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'sib kelayotgan avlod huquqiy ta'lim - tarbiyasining xususiyatlari yangi jamiyatning o'z xarakteri, turmush tarziga asoslanadi. Dastlab, huquqiy ta'lim - tarbiya yangi insonni kamol toptirishning samarali vositasi sanaladi.

Muhokama: Huquqiy ta'lim - tarbiya yana shuning uchun ham muhimki, jamiyat qonunlari o'zining dolzarbligini saqlab qoladigan ilg'or va insoniy qoidalarni o'z ichiga olgan bo'ladi. Binobarin, o'z mohiyatini yo'qotgan normalar barham topadi, lekin ko'pgina narsalar saqlanib ham qoladi. Endi ular huquqiy norma, qonun sifatida bo'lmaydi. Odamlar tegishli qoidalarga amal qilishga o'rganishadi, bu ular uchun odat tusiga kiradi, shundagina bunday qoidalarni qonunlarda mustahkamlab qo'yish va ularni, mabodo bunday qoidalarga rioya etilmaganda buning uchun tegishli huquqiy

javobgarlikka jalb etiladi, degan ko‘rsatma yordamida isbotlab qo‘yishga bo‘lgan zaruriyat o‘z o‘zidan barham topadi. Bunday qoidalar endi ma’naviy tartibga soluvchilar tarzida amal qilaveradi. Huquqiy ta’lim tarbiya faqat yoshlarning o‘zlari, shuningdek ularning yaqin atrofdagi shaxslar, kichik guruhlar huquqiy ongining mavjud darajasini hisobga olgan holda amalga oshirilgandagina samarali bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga huquq masalalari borasida keng jamoatchilik fikri holatini ham hisobga olmaslik mumkin emas. Tarbiya obyekti, shu o‘rinda – yoshlarning ahvolini uning huquqiy madaniyati ko‘rsatib beradi.

Xulosa: Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yoshlarning huquqiy madaniyatini o‘rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy holatining istiqbollari baholashga imkon beradi. Sababi shaxs qaror topib borayotgan davrda uning qadriyatlarga munosabati takomillashadi, huquqqa ijobiy va salbiy munosabat vujudga keladi, faol yoki passiv ijtimoiy-huquqiy xulq-atvoriga qaratilgan yo‘l-yo‘riqlar vujudga keladi. Nihoyat, huquqiy ta’lim-tarbiyaning samaradorligi tarbiya obyektining ahvoli haqidagi bilimlarning chuqurligiga va darajalanganligiga muvofiq keladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Topildiyev V.R. Ta’lim – tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunchilik normalari–T., 2016.
2. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
3. Z.M.Muqimov. O‘zbekiston davlati va huquqi tarihi. -T.: Adolat 2003.
4. U.Tojixonov. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. - T.: Sharq, 2001.
5. U.Tojihonov, A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi I-II tomlar. -T.: Akademiya, 2000.